



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА
ИННОВАТЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ



БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусидаги халқаро миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2023 йил-10 июнь

Бухоро - 2023

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғликлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида 2023 йил 10 июнь кунини “БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГИ ДАВРГАЧА) мавзусидаги халқаро миқёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан кизикувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

Х.Х.Тўраев

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Таҳрир хайъати ва аъзолари:

Бухоро давлат университети ректори,
иқтисод фанлари доктори, профессор
Илмий ишлар ва инновациялар
бўйича проректори, физ-мат ф.д (DSc), проф
Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири
Бухоро давлат университети профессори,
тарих фанлари доктори
Бухоро давлат университети профессори,
тарих фанлари доктори
тарих фанлари номзоди, доцент
тарих фанлари номзоди, доцент
тарих фанлари номзоди, доцент
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Археология ва Бухоро тарихи кафедраси
катта ўқитувчиси
Археология ва Бухоро тарихи
кафедраси ўқитувчиси

О.Х.Ҳамидов

Т.Ҳ.Расулов
Ф.У.Темиров

И.С.Иноятов

Ш.А.Ҳайитов
М.Б.Қурбонова
М.И.Ниязова
Ф.Ҳ.Бобожонова
И.Н.Наимов
А.Ҳ.Болтаев

О.И.Ражабов

Ш.Ў.Носиров

Тўловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири
Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси
Носиров Ш.Ў – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2023 йил 15 майдаги
7 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,
маълумотлар, чиқарилган хулосалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг
ўзлари масъул ва жавобгар

FAYZULLAYEV Farrux	МОВАРОУННАХРДА ШАЙБОНИЙЛАРНИНГ ХОКИМИЯТ ТЕПАСИГА КЕЛИШИГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	190
SAFAROV Tolib Todjievich	BUXORO AMIRLIGINI YAQIN QO'SHNI XORIJ MAMLAKATLAR BILAN BOG'LOVCHI SAVDO YO'LLAR	195
HIMMATOV Ro'zi	MIRZO SIROJIDDIN HAKIMNING TUFAYI AHLI BUXORO ASARI XUSUSIDA	198
MUBINOV Muhammadali Akobirovich	BUXORO AMIRLIGINING SIYOSIY, IJTIMIY-IQTISODIY HAYOTI INGLIZABON MUALLIFLAR ASARLARIDA	199
QURBONOV Murodjon	"TARIXI SALIMIY" ASARIDA AMIR MUZAFFAR FARZANDLARINING TARJIMAI HOLI	204
NOSIROV Sherzod	PROFESSOR PO'LAT SOLIYEV IJODIDA MANG'ITLAR DAVRI TARIXI MASALALARI	209
Ж.Ю.ЭРГАШЕВ	КАРВОНСАРОЙЛАРНИНГ ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ТИЗИМИДА ТУТГАН ЎРНИ	211
ТОЖИЕВ Достонжон	УБАЙДУЛЛАХОН I ХУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА БУХОРО ХОНЛИГИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ	214
XIDIROV Xoshim	MUHAMMAD SHAYBONIYXON – SHAYBONIYLAR DAVLATINING ASOSCHISI	217
АБДУКАРИМОВ Жамолiddин	"МУНТАХАБ АТ-ТАВОРИХ" АСАРИ МУАЛЛИФИ МУҲАММАД ҲАКИМХОН АМИР ШОҲМУРОД ҲАҚИДА	220
Музробжон АБДУЛЛАЕВ Расулбек АБДУРАСУЛОВ	АШТАРХОНИЙЛАР ДАВРИДА БУХОРО ХОНЛИГИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА СОЛИҚ ТИЗИМИ	224
Феруза АМОНОВА	АБДУРАУФ ФИТРАТНИНГ БУХОРО АМИРЛИГИДА ИҚТИСОДИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ОИД ҚАРАШЛАРИ	227
Фарзия АНСОРОВА	ХАРИТАИ АҲМАДИ ДОНИШ ДАР САНКТ -ПЕРЕРБУРГ	230
Saodat АТАВЕКОВА	МИР АРАБ МАДРАСАСИ: ТАЪЛИМ ВА НОЁБ МЕЪМОРЧИЛИК АНЪАНАЛАРИНИНГ ИНТЕГРАЦИЯСИ	238
Жуманиёз САНГИРОВ	АШТАРХОНИЙЛАР СУЛОЛАСИ ДАВРИДА ХУДУДИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ	241
Каримов Б.Х.	АҲМАД ДОНИШ БУЮК МУТАФАККИР ОЛИМ ВА МАЪРИФАТПАРВАР	246
Курбанов Б.Г	К ИСТОРИИ УЧЕБНЫХ ПРИНАДЛЕЖНОСТЕЙ СРЕДНЕВЕКОВОЙ БУХАРЫ	249
Begimqulova Laylo	BUXORO AMIRLIGIDA MAHALLIY BOSHQARUVNING O'ZIGA XOSLIGI	252
Шавкат Бобожонов	БУХОРО АМИРЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЙ ПИРЛАРНИ ЗИЁРАТ ҚИЛИШ АНЪАНАСИ	254
Бобожонова Феруза	XIX аср охири-XX асрнинг биринчи чорагида Бухорода мактаб таълими	257
Мамадалиев И.А. Арипова Н.И.	«БУХАРА» – В КОНТЕКСТЕ ИМПЕРСКИХ ПРОТИВОРЕЧИЙ	260
Лола Полвоновна Мухамеджанова Саодат Сатторовна Жабборова	1917 йил БУХОРОДАГИ АПРЕЛЬ ВОҚЕАЛАРИГА ДОИР	263
Abduraimova Manzura	BUXORO AMIRLIGIDA KONCHILIK SANOATINING PAYDO BO'LISH JARAYONLARI	270
Tilabjonova. S.Sh	BUXORO XONLIGI ASHTARXONIYLAR SULOLASI DAVRIDA : ELCHILIK MUNOSABATLARI	272
Beknazarov Javohir	ASHTARXONIYLAR SULOLASINING SHAJARASIGA DOIR AYRIM FIKR MULOHAZALAR.	274
Umidjon Baqoyev	AMIR SHOHMUROD - ILM-FAN VA MADANIYAT HOMIYSI	279
Homidjonov Nodir	BUXORO AMIRLIGI VA Rossiya O'RTASIDA XIX ASRNING 30-50 YILLARDA OLIB BORILGAN MUNOSIBATLAR	283
Do'smurotov Raximjon	BUXORO XONLIGIDA MADANIY HAYOT	285
N.A. Jumayeva Samandarova Nasiba	BUXORO HOVUZLARI TARIXI XUSUSIDA	287

XVII asr boshlarida O'rta Osiyo va Ozarbayjonda yashab o'tgan 320 nafarda ortiq ta'lim olgan hayoti va yozgan asarlari haqida ma'lumot beriladi. XVII – XVIII asrlarda Buxoro xonligida ta'lim tizimi o'ziga xos tarzda rivojlangan. Bu davrda shaxar va qishloqlarda ko'plab maktablar mavjud bo'lgan. Bolalar 5-7 yoshidan maktabga borishgan. Maktab xarajatlari domlalarining maoshi vaqf mulkiga tushgan. Maktablar va ota-onalar tomonidan berilgan haq evaziga qoplangan. Yetim bolalar bepulga ta'lim olgan. Maktablarda o'qish 5-8 yil davom etgan. Maktabda "Haftiyak" (Qur'oni karimning 7-8 surasidan biri), hisob-kitob, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Sheroziy, So'fi Ollayorning asarlari, "Chor kitob" va boshqalardan dars berilgan. Qizlar esa o'qish bilan birga odob-axloq, qiyoschilik, uy-ro'zg'ordan han dars berilgan. Maktablarni bitrgan iqtidorli o'g'il bolalar maktabdatchilik, uy-ro'zg'ordan davom ettirishgan. Madrasalarda o'qish esa 7-12 yildavom etgan. Bu davrda Buxoro xonligida 150 dan ortiq madrasalar faoliyat ko'rsatgan. O'qishda arab va fors tilidagi kitoblarni o'qitilgan. Birinchi "Avvali ilm" o'quv qo'llanmasi, keyin esa arab tili grammatikasi o'qitilgan. Madrasalarda fiqh, falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, tarix, jug'rofiya, falsafa, aruz ilmi, xattotlik, notiqlik, hadis ilmi, jami bo'lib 137 darslar va qo'llanmalar o'qitilishi kerak bo'lgan⁶²⁵.

~ 287 ~

Dastlab bu yerda Labi Hovuz bilan birgalikda Nodir devonbegi xonaqohi va karvonsaroy quriladi. Karvonsaroy vaqf mulkiga berilib xonaqohni xarajatlarini qoplab turish rejalashtirilgan edi. Lekin o'sha vaqtlardagi Buxoro amiri Labi hovuz ansambli idarasi Karvonsaroyni yangilash ketib, xalq oldida madrasa deya e'lon qilib yuboradi. Shu tariqa Amrning yuzidan o'tolmagan saroy amaldorlari Karvonsaroyni madrasaga aylantirishadi. Bunday holat Nodir devonbegi madrasasining qurilishida ham yaqqol bilinib turadi. Amirlikda bir xil reja asosida qurilgan madrasalardan farqli ravishda Nodir devonbegi madrasasi ichida masjid ham, katta qiroatxona ham yo'q. Keyinchalik karvonsaroyning xonalari madrasa faoliyatiga moslashtiriladi. Nodir Devonbegi madrasasi va xonaqoh toki chor Rossiyasi bosqiniga qadar faoliyat olib borgan.

Shuningdek, xalq og'zaki ijodida ham bu inshoot haqida ko'plab rivoyatlar mavjud. Rivoyatlardan birida Labi Hovuz va uning atrofidagi binolarni mahr evaziga berilgan zirak bahosiga qurilgan haqidadir.⁶²⁶

Nodir devonbegining o'zi yirik amaldor bo'lsa ham, oilasi o'rta qatlam vakili bo'lgan. Devonbegi yoshligidan ancha ilmga chanqoq bo'ladi va tezda amal pillapoyalaridan ko'tarilib Buxoro amirining Bosh vaziri Devonbegi etib tayinlanadi. Amir qarorgohida ishlab yurgan vaqtlarida boy va mansabdor kishining qizini sevib qoladi hamda unga sovchi qo'yadi. Mahr qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bir juft tilla zirak beriladi.⁶²⁷

Kelin uchun berilgan ushbu mahr kamdek ko'rinadi va qiz andak xafa ham bo'ladi. Sababi bo'lajak kelin ancha boy oilada yashagan, kuyov bola ham uncha-muncha emas, naqdi Buxoro amirligining Bosh vaziri- Devonbegi edi. Shunday bo'lsada nikohga qiz tomonidan rozilik bildiriladi hamda to'y bo'lib o'tadi. O'zining tilla-taqinchoqlarini mo'jazzgina sandiqchalarda saqlaydigan aksar saroy xonimlari kabi Devonbegining ayoli ham o'z tilla-taqinchoqlarini va ushbu ziraklarni sandiqchaga solib qo'yadi.⁶²⁸

Shu asnoda bir qancha yillar o'tadi. Bir kun ayol sandiqchani ochib qarasa bir juft zirakning bittasi yo'q bo'ladi, uni qidirib ham topa olmaydi. So'ng devonbegining ayoli xonadonda to'polon ko'taradi, uyimizda o'g'ri chiqibdi deya har tarafga jar soladi. Shu asnoda Nodir devonbegi kelib ayolini tinchlantirib, zirakni bir jufti kerak bo'lgani uchun olganini aytadi.⁶²⁹

Bir qancha vaqt o'tib Nodir devonbegi keladi va ayoliga Buxoro shahrini aylanishni taklif qiladi. Devonbegi ayolini o'sha vaqtda endigina qurib bitkazilgan Labi Hovuz ansambli'ga olib boradi. Bunday so'lim go'sha, katta hovuz va chiroyli binolar devonbegining ayolini o'ziga maftun etadi. «Bunday chiroyli binolaru hovuzni kim qurdi, qachon qurildi bular?» deya Devonbegidan savol so'raydi. Nodir devonbegi bir qachon vaqt oldin olgan ziragini eslatadi hamda o'sha zirakning bittasini evaziga ushbu binolarni qurdirdim deydi. Shundan so'nggina devonbegining ayoli mahr uchun berilgan ushbu bir juft zirakning naqadar qimmatbaho ekanligini tushunib yetadi.⁶³⁰

Hozirgi kunga kelib Buxorodagi Labi hovuz ansambli yangidan ta'mirdan chiqarilgan hamda shahar ahli va sayyohlarning sevimli go'shasiga aylangan. Labi hovuzning salqin shamoli va unga o'rnatilgan chiroqli favvoralar bilan bir qatorda, Buxorodagi boshqa tarixiy

⁶²⁶ Мухаммаджонов А. Зарафшон водийсининг сув хўжалиги тарихидан. Т., «Қизил Ўзбекистон», «Правда Востока» ва «Ўзбекистони Сурх» бирлашган нашриёти. 1959

⁶²⁷ Вухоро sharq durdonasi. "Sharq" nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. Toshkent-1997

⁶²⁸ A.A.Azimov. O'zbekistonda suvdan foydalanish an'analari va zamonaviy yondashuvlar. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent-2015

⁶²⁹ V.L.Shuls va R.Mashrapov. O'rta Osiyo gidrografiya. "O'qituvchi" nashriyoti Toshkent 1969-yil

⁶³⁰ Иброхимов И. Бухоро ховузлари. // Халк сўзи. 2013 йил, 4 июль. № 129 (5803)-сон

shaharlardan farqli o'laroq, bu inshootda kechki vaqtlarda ham odam gavjum bo'ladi va tomonlarga barcha turdagi xizmatlar ko'rsatiladi⁶³¹.

Labi hovuz ("hovuz bo'yida", "havza bo'yida")-Buxoroning markaziy maydonlaridan biri. Labi hovuz bilan bog'liq me'moray ansambl XVI-XVII asrda yaratilgan. Maydoni ko'kaldosh, Devon Begi honaohi binolaridan tashkil topgan, atrofi Nodirbegi hovuzi bilan tashkil topgan. Ansambl o'lchami, taxminan 150x200 metrdir. Hovuz eni 36 metr, bo'yi 45,5 metr, chuqurligi 5 metr. 1920- yillar Buxoroning ko'plab boshqa hovuzlari kabi ko'pchilik tomonidan barpo qilingan hovuz mo'jizaviy tarzda qurishdan to'xtaydi. 1945-yillarda so'ng shaharning ko'plab hovuzlari kabi Labi hovuz ham suvi quritilgan. 1950-yillarda oxirida esa hovuz atroflariga quvurlar o'tkazib favvora qurilgan bo'lib u hozirgi kungacha ishlab chiqarilgan. Labi hovuzning asosiy suv manbayi Shohrud kanalining irmog'i hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib Buxorodagi Labi hovuz ansambli yangidan ta'mirdan chiqarilgan hamda shahar ahli va sayyohlarning sevimli go'shasiga aylangan⁶³².

Buxorodagi hovuzlar ilgari aholini suv bilan ta'minlashda muhim manba bo'lgan. Masalan, birgina Labi hovuzdan saksonta meshkob suv olib, xonadonlar, choyxona, karvonsaroylarni obihayot bilan ta'minlab turgan. Labi hovuz Buxoroning eng taniqli va mashhur joylaridan biri hisoblanadi. Qadimda ham (1620-yillarda) xuddi hozirgi kabi Labi hovuz majmuasi Buxoro jamoatchiligining sergavjum markazlaridan bo'lib, maydonda ichki savdo maydonchalari, go'zallik koshonolari, umumiy ovqatlanish va dam olib, chiqarish nuqtalari, hammomlar qizg'in faoliyat yuritgan. Dastavval bozor maydoni bo'lgan xolos. Keyinchalik maydon o'rtasidan sun'iy hovuz qazdirilgan. Atroflari sinchlar bilan mustahkamlangan⁶³³.

Buxorodagi eng katta hovuzlardan biri bo'lgan Labi hovuz 1620-yilda Buxoro xoni Imomqulixonning bosh vaziri Nodir Devonbegi tomonidan qurilgan. O'lchamlari: uzunligi 42 metr, kengligi 36 metr, chuqurligi 5 metr bo'lgan. Bu hovuzning qurilish dasturi Nodir Devonbegi tomonidan taklif etilgan. Mazkur hovuz va boshqa 200 ta hovuzlar shahar aholisini suv bilan ta'minlash uchun suv zahirasi sifatida qurilgan. Toza saqlangan hovuz suvidan asosan ichimlik suvi sifatida foydalanilgan⁶³⁴.

Shahardagi ikkita hovuzning usti yirik gumbaz bilan yopilgan bo'lib, bu hovuzlarga yer usti suvlari va bahor mavsumida keladigan yomg'ir suvlari jamlangan. Ulardan biri Xalifa Rudoymot hovuzi, ikkinchisi esa Eshoni Imlo xonaqosi oldida joylashgan hovuzdir. Bulardan tashqari qator chashmalar bo'lib, ular suvlarining shifobaxshligi bilan mashhur bo'lgan. Ana shunday chashmalardan shahar ichkarisida Xo'ja Nurobod, Chashma-Ayub, shahar tashqarisida Xo'ja Ishoq va Hazrati Imom chashmalaridir⁶³⁵.

⁶³¹ Qorayev Suyun. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005
⁶³² Buxoro sharq durdonasi. "Sharq" nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. Toshkent-1997
⁶³³ Muxammadjonov A. Zарафшон водийсининг сув хўжалиги тарихидан. Т., "Қизил Ўзбекистон", "Трагедия Востока" ва "Ўзбекистони Сурх" бирлашган нашриёти. 1959
⁶³⁴ Sodiq Djurayevich Zaripov. Buxoro vohasi sugorilish tarixiga doir ayrim mulohazalar. Scientific progress volume 2 | issue 1 | 2021 Issn: 2181-1601
⁶³⁵ Иброхимов И. Дарё бўйидаги ташналик ёхуд Бухорода археолог-олимлар тайёрлаш муаммолари тўғрисида. // Бухоро хаикати. 1997